Volume 3, Issue 1,2024

UILYAM SHEKSPIRNING “HAMLET” ASARINI O’QITISHNING METODIK ASOSLARI

To’g’onova Dinoraxon Mansurjon qizi
ToshDO’TAU ona tili va adabiyoti ta’limi fakulteti, 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Uilyam Shekpirning jahonga mashhur bo’lgan “Hamlet” asarini o’qitishning adabiy- estetik asoslari ko’rib chiqiladi. Dars jarayonida asarni tushunish va uni tez anglash yuzasidan turli xil metodlar asosida asarni o’rganish maqsad qilib olingan.
Kalit so’zlar: Metod, “Hamlet”, Edvard Douden, “G’arb adabiyoti tadqiqi”, Belfore, “G’aroyib voqealar”, M.A. Danilov, B.P. Yesinov, An’anaviy metodlar, didaktik metod, sxemali metod, reproduktiv metod, ijodiy (evristik) metod, vizualizatsiya.

Shekspir Uyg’onish davrining eng yirik va sermahsul ijod qilgan adiblaridan biridir. U haqida yuzlab kitoblar yozilgan, ko’plab shekspirshunoslar yetishib chiqqan, uning ijodi turli, o’ta ziddiyatli fikr- mulohazalar uyg’otgan. Bizdan 400 yil avval yashab ijod etgan bu buyuk dramaturg ushbu sohada egallagan cho’qqi hanuz zabt etilgani yo’q. Shekspir tragediyasi o’ziga xosligi bilan boshqa tragedik asarlardan farq qiladi. Mashhur olim Endryu Sesil Bredlining aytishicha, “Shekspir tragediyasi bu aslida hikoyadir. Shunday hikoyaki, azob- uqubat va ofat bilan yakun topadi”[1]. Shekspir fojeali qahramonlarining boshqa yozuvchilar qahramonlaridan farqli jihati shundaki, ular oddiy inson emas. Ular mamlakat shohi yoki davlatning obro’li, zodagon fuqarolaridan, taniqli shaxslaridan hisoblanadi. Biz ushbu dissertatsiyada o’rganayotgan asar qahramoni Hamlet ham Daniya shahzodasi. U aqlli, ochiqko’ngil, kelishgan hamda mulohazali qahramon. Shekspir tragediyasida ezgulik va yovuzlik o’rtasidagi kurash tasvirlangan. XIX asrning taniqli shoir va adabiyotshunosi Edvard Doudenning so’zlariga ko’ra Shekspir tomonidan o’ylab topilgan fojea inson hayotini va ruhini tiklashga qaratilgan fojeadir. Boshqacha qilib aytganda, uning mavzusi dunyodagi yaxshilik va yomonlik o’rtasidagi kurashdir[2]. Shekspir asarlarida hech qachon yaxshilik yovuzlik ustidan g’alaba qozonmaydi. Shekspir adabiyot maydonida o’z ovozi bilan o’chmas iz qoldirgan shaxsiyat namunasidir. Uning qalamiga mansub asar, xoh u sonnet bo’lsin, xoh tragediya, xoh komediya insonlar qalbidan joy olmasdan qolmaydi. 20-yillar matbuotida bu adibning ijodini ochib berish maqsadida katta tajriba yaratildi. Rafialining “Shekspir” nomli maqolasi “Maorif va o’qitg’uchi” jurnalining 1928- yil 3 va 4- sonlarida “G’arb adabiyoti tadqiqi” rukni ostida chop etilgan. Rafialining ushbu maqolasi boshqa yozganlaridan tubdan farq qiladi. Sababi, “Shekspir” maqolasida ijodkor shaxsi haqida to’xtalib, so’ng asar nomlari “quruqqina” sanab ketilmaydi. Balki, avval Shekspir davrida Angliyadagi ijtimoiy hayot haqida, so’ng adib hayot yo’li va oxirida asarlari sharhiga bag’ishlaydi[3]. Har qanday asarni o’rganish undan zavq olish uchun o’qituvchidan ham o’quvchidan ham baravar mehnat talab qiladi. Asar tarixini o’rganish, yana shunga o’xshash asarlar bormi, agar bor bo’lsa kimlar tomidan yozilgan, qanday farqlar bor kabi savollar o’rtaga tashlansa, auditoriya jonlanadi. Qiziqarli dars muhiti paydo bo’ladi. Shoira Normatovaning Jahon adabiyoti nomli qo’llanmasida[4] “Hamlet” asarining tarixi haqida to’xtalib o’tadi. Muallif izlanishlariga ko’ra, bu tragediya asosida XII asr solnomachisi Sakson Grammatik tomonidan yozib qoldirilgan afsona

[1] Dilnozaxon Murotova Otabek qizi. Shekspirning “Hamlet” asari haqida. Talqin va tadqiqotlar respublika ilmiy- uslubiy jurnali. №5
[2] Dilnozaxon Murotova Otabek qizi. Shekspirning “Hamlet” asari haqida. Talqin va tadqiqotlar respublika ilmiy- uslubiy jurnali. №5

[3] Rafiali X. Shekspir// Mva o’qituvchi.- 1928.
[4] Shoira Normatova. Jahon adabiyoti. Cho’lpon nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2008. 24-bet

yotadi. Unda shahzoda Gamlet otasining o'limi uchun amakisidan qasos oladi. Bu niyatini yashirish maqsadida u o'zini aqldan ozgan qilib ko'rsatadi. Asar nihoyasida Gamlet g'alaba qozonadi va taxtni egallaydi. Ushbu qissa fransuz yozuvchisi Belforening "G'aroyib voqealar" kitobiga ham kiritilgan. Bundan tashqari T.Kid tomonidan yozilib, bizgacha yetib kelmagan asarda ham "Gamlet" haqida ma'lumotlar bor. Shekspirga bu aar, albatta, tanish bo'lishi kerak. Shekspirning Gamleti afsona qahramonlaridan ancha farq qiladi. Shekspir qahramoni hayoti afsonadagidan farqli o'laroq fojiali tugaydi, bundan tashqari u ayyor va epchil qasoskor ham emas. Shekspir yaratgan Gamlet murakkab fikrlovchi qahramon, u qasos olishga shohsilmaydi. Gyote o'zining "Vilgelm Meysterning talabalik yillari" romanida Gamletga chiroyli ta'rif beradi. Roman qahramoni akytor Gamlet rolini o'ynaydi va uni baquvvat eman daraxti o'tqazilgan nafis hamda qimmatbaho guldonga o'xshatad. Emanning ildizlari chuqurlashib borib guldonni chil- chil qiladi. Ya'ni, otasi uchun qasos olish burchi nozikqalb Gamletga zaif xarakter qilib ko'rsatadi. Gyote fikri keyinchalik rivojlantirlib, bu qahramon irodasi kuchsiz, deya baholana boshlangan[5]. Gamletni tabiatan zaif, ojiz qahramon deyish uncha to'g'ri emas. U, aksincha, hayot mohiyatini izlovchi inson. Gamlet insonlarni qadrlaydi, o'zidan keyin yomon nom qoldirishdan qo'rqadi. Shekspir yaratgan o'lmas durdonalar, u ilgari surgan gumanistik g'oyalar kelgusi asr kitobxonlarini ham ezgulikka, ma'rifatga chorlovchi asarlar bo'lib qolaveradi. Dars jarayonida asarga kirishdan oldingi pog'onada o'qituvchi, albatta, asar haqida hikoya qilishdan boshlab, sekin-asta o'quvchilarni o'sha muhitga olib kirishi, shaxslar va davr bilan tanishtirishi lozim. Bu o'quvchilarda asarga nisbatan boshlang'ich qiziqishga olib keladi. Asarga nisbatan o'quvchilarda badiiy- estetik ruh shakllanadi. Asarni o'quvchilar nima sababdan o'qishim kerak degan savollariga javob topsagina, o'qituvchi tomonidan foydalanilgan har qanday metod o'z vazifasini bajargan bo'ladi. O'qitish metodlari har doim dinamikada bo'lishini talab qiladi. Ta'lim mazmuniga qarab, dunyoda ro'y berayotgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda harakatda bo'ladi. N.N. Azizxo'jayevaning "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat"[6] nomli o'quv qo'llanmasida eng asoslangan o'qitish metodlari tasniflariga quyidagicha ta'rif beradi:

1. An'anaviy metodlar. Bu metodlarning ibtidosini ilk falsafiy va pedagogic tizimlar tashkil etadi. Hozirda ulardan beshtasi inobatga olinadi: amaliy, ko'rgazmali, ifodali, kitob bilan ishlash va video metodlar.
2. Maqsadiga ko'ra metodlar tasnifi: (M.A. Danilov, B.P. Yesinov)

- Bilimlarni egallash;
- Malaka va ko'nikmalarni shakllantirish;
- Bilimlarni qo'llash;
- Ijodiy faoliyat
- Mustahkamlash metodlari;
- Bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish metodlari.

3. Idok etish-bilish faoliyati xarakteriga ko'ra metodlar tasnifi:

- Tushuntirish – illyustrativ. Ularning xarakterli xususiyatlari; bilimlar "tayyor holda" tavsiya etiladi; bu bilimlarni idrok qilish tashkil etiladi; bilimlar idrok qilinadi va tushunib olinadi, xotiraga joylashtiriladi;
- Reproduktiv metod: bilimlar tayyor holda tavsiya etiladi, bilim nafaqat bayon qilinadi, balki tushuntiriladi; bilimlar ongli o'zlashtiriladi, ularning tushunilishi v eslab qolinishiga erishiladi hamda bilimlarning mustahkamligi tez- tez takrorlash yo'li bilan ta'minlanadi.
- Muammoli bayon qilish metodi;

[5] Shoira Normatova. Jahon adabiyoti. Cho'lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. T – 2008. 25-bet

[6] N.N. Azizxo'jayeva. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat". O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. T- 2006, 24-b

- Qisman ijodiy (evristik) metod. Bilim tayyor holda tavsiya etilmaydi, balki u mustaqil ravishda egallanadi; yangi bilimlarni qidirish, izlash tashkil etiladi; bilish vaizfalari bo'yicha mustaqil fikr yuritiladi, muammoli vaziyatlar yaratiladi va hal qilinadi;
- Tadqiqiy metod. Bunda muammo belgilab olinadi, muammoning tadqiqoti jarayonida bilim egallanadi.

4. Didaktik maqsadi bo'yicha (T.I. Shukina, I.T. Ogorodnikov va boshqalar) quyidagilar farqlanadi:


- Ilk bor bilimlarni o'zlashtirish metodlari;
- Egallangan bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish metodlari.

Yuqorida keltirib o'tilgan metodlar asosida Shekspirning "Hamlet" asarini dars jarayonida qanday o'tilishi o'qituvchi va o'quvchilar ishtirokida tanlanishi darkor. An'anaviy metod asosida dars o'tilishi, asosan, darsning eng muhim qismi sanaladi. har qanday asar o'qish orqali tushuniladi, estetik zavq oladi, qahramonlar hayoti misolida undan o'rnak yoki dars oladi. "Hamlet" dramatik ya'ni teatr uchun xoslangan asar bo'lgani bois, ifodali o'qish davomida sinfdagi o'quvchilar bir nechtasi darsda ishtirok etishga erishiladi. Olimlarning fikricha, badiiy matnni tushunish o'quvchining mutolaa maqsadiga bog'liq bo'ladi. Masalan, Tompkins mutolaa muayyan maqsadlarga asoslanishi zarurligini ta'kidlaydi. Maqsadsiz o'qishni boshlagan yoki badiiy asarni faqat estetik zavq olish uchungina o'qigan har qanday kitobxon matndan tez zerikib qoladi[7]. Darslarda o'quvchini mutolaa jarayoniga olib kirish, bu odatni davomiy yo'lga qo'ya olish o'qituvchining adabiyot darslarida qo'llashi kerak bo'lgan asosiy metodlardan biri sanaladi. Nomi an'anaiy metod ya'ni markazda o'qituvchi turgan o'qitish modeli darsga kirish qismini tashkil qiluvchi usuldir. Dars oldin o'zlashtirilgan bilimlar bilan o'rganilishi kerak bo'lgan bilimlar o'ratsida aloqani o'rnatish uchun aynan bu metod qo'l keladi. Maktab darsligida kichik sinflarda Shekspir va uning asarlari haqida ma'lumot berilmagan. Ammo, o'quvchilardan uning shaxsiyati, filmga aylantirilgan asarlari haqida bilts savol- javoblar auditoriyani jonlanishiga olib keladi. Hozirgi kundagi globallashuv davridagi rivojlanayotgan texnika fan sohalariga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmayapti. Bu esa bilimlarni yangicha usulda taqdim qilish sharoitini bergan holda, o'qituvchilar va o'quvchilardan ham baravar mehnat talab qilmoqda. "Hamlet" asarini sinfda o'qitishni boshlar ekansiz, auditoriya siz hozirlab qo'ygan metodga tayyor yoki tayyor emasligini tahlil qilib chiqishi kerak bo'ladi. Bolalar qiziqishi, bilimi hisobga olgan holda metodlar amalga oshiriladi. Adabiyot faniga mo'ljallangan sinflar bilan ishlaganda, asarni o'qitishdan avval bir nechta bosqichlar orqali asar matni bilan tanishtirish mumkin. Bu bosqichda asarda hikoya qiligan zamon, makon, insonlar qiyofasi, haqida tushuncha berish maqsadida turli xil artefaktlardan, multimedia vositalaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Horijda "Hamlet" filmi uchun ishlangan film, hujjatli film, opera va musiqalardan xabardor qilish, kitobxondagi mavjud bilim va badiiy matn o'rtasida ko'prik vazifasini bajargan bo'ladi. Amerikalik olim Vilyam Henk ham o'qishdan oldingi bilimlarni oshiruvchi vositalar haqida o'z fikrini bildirib o'tgan. Ya'ni, har qanday yangi ma'lumot o'quvchilar tomonidan qabul qilinayotgan paytda, unga yordam beruvchi qo'shimcha bilimlar zarurligini ilgari suradi[8]. Bunga qo'shimcha tarzda asar muallifi haqida qisqacha ma'lumot berib o'tish, yozuvchi biografiyasidan o'qilayotgan asarni tushunishga yordam beruvchi vositalarni keltirib o'tish o'quvchini asarni tezroq va tushunarli anglashiga yordam beradi. Xorijda adabiy asarlarni o'qishdan farqli o'laroq, bizning adabiy ta'limda asar bilan ishlashda asardan oldingi fikrlar o'quvchi fikri so'ralmaydi. Asarning kirish qismi mavjud emas. Har qanday metoddan maqsad qisqa vaqt ichida bolalarda shu asarga nisabatan fikr va mehr uyg'otishdan iborat. Bu esa, albatta o'qishdan oldingi jarayon bo'lib, kitobxonning motivatsiyasini oshirishga xizmat qilishi kerak. Ya'ni bu bosqichda asarning nomiga alohida to'xtalib o'tish, nma sababdan

[7] Zulxumor Mirzayeva. Komil Jalilov. Adabiyot o'qitish metodikasi (An'anaviylikdan zamonaviylikka) T- 2020, 40-bet

[8] W.Henk. "New directions in reading assessment". Reading and writing quarterly. 1993, 103-120 - bet

Shekspir butun boshli dramasiga shaxs ismini qo'yish bilan cheklanganligi, asar nima haqida bo'lishi mumkinligi kabi kirish savollar bilan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Asarni faol o'qish bosqichida esa, o'rganilayotgan asar daramatik janrga mansubligini hisobga olib, o'qituvchi o'quvchilariga sxema chizib, asarning o'rganilish bosqichini tushuntirib berishi kerak.



Qozoqboy Yo‘ldoshev ta’kidlaganidek, har qanday badiiy matnni o‘rganish uni o‘qishdan boshlanadi. O‘qishning qandayligi o‘quvchida badiiy asarga munosabatni shakllantiradi. Chunki asarda aks etgan insoniy sezim va tuyg‘ular o‘quvchiga yetib boradigan tarzda o‘qilgandagina badiiy asar muayyan qiymat kasb etadi. Aks holda har qanday ko‘rkam matn shunchaki harflar yohud tovushlar yig‘indisidangina iborat bo‘lib qoladi. Shuning uchun ham adabiy ta’limda ifodali o‘qish o‘ta muhim sanaladi[9]. Bu metod o‘z navbatida ifodali o‘qish deb nomlangan. Biz o‘rganayotgan Shekspirning “Hamlet” dramasi she’riy usulda yozilgan. Asarni o‘qishda birinchi navbatda o‘quvchidan ifodali o‘qish talab qilinishi bejiz emas. O‘qish davomida faqat tinish belgilarigagina rioya qilib o‘qish emas, balki har qanday matnni his qilib o‘qilsagina undan estetik zavq oladi. “Hamlet” asarida yigirma beshta personaj ishtirok etgan. Tabiiyki, bular hammasi o‘z shaxsiy harakteriga, asarda o‘z vazifasiga ega. Qaysi biridan salbiy qahramon bo‘lsa, yana boshqasi ijobiy. Bu vaqtda o‘quvchidan talab qilinadigan narsa – asar o‘qish davomida har bir qahramonning ruhiy holatiga kira olishi ya’ni hissiyotga berilib o‘qish, vaziyatga mutaanosib ravishda ovoz tonini o‘zgartirishi, inntonatsiya bilan mutolaa qilish bularning barchasi ifodali o‘qish metodini qamrab oladi. Ifodali o‘qish metodining afzalliklari o‘quvchilada shu asarga nisbatan muhabbatni ortishiga, asarni tushunishga va uni o‘zlashtirishga yordam beradi. Ifodali o‘qishni o‘rgatishda o‘qituvchilarga katta mas’uliyat yuklatiladi. O‘qiyuvchining o‘zi biror-bir kamchiliksiz asarni o‘qiy olmas ekan, adabiyot darslaridan kutilgan maqsad yuzaga chiqmaydi. Bu haqida mashhur metodistlar shunday fikr bildirishadi: “...ifodali o‘qishning ohangini tekst mazmunidan ta’sirlanish yo‘li bilan belgilash ma’qul”[10]. Demak, ifodali o‘qishni har bir personajning tabiatiga baho bergan holda o‘qish va o‘quvchilarga ta’sir kuchini yetkazib berish talab qilinadi. Shundagina bola muallif holatini,uning his tuyg‘ularini tuyadi. Abdulla Qahhor aytganidek: “Bilgan bilib qo‘ya berishi mumkin, ammo his qilgan his qiib qo‘ya bermaydi”. Shunday ekan, ifodali o‘qish metodi bu – qalban his qilib o‘qishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. Dilnozaxon Murotova Otabek qizi. Shekspirning “Hamlet” asari haqida. Talqin va tadqiqotlar respublika ilmiy- uslubiy jurnali. №5
2. Dilnozaxon Murotova Otabek qizi. Shekspirning “Hamlet” asari haqida. Talqin va tadqiqotlar respublika ilmiy- uslubiy jurnali. №5
3. Rafiali X. Shekspir// Mva o’qituvchi.- 1928.
4. Shoira Normatova. Jahon adabiyoti. Cho’lpon nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2008. 24-bet
5. Shoira Normatova. Jahon adabiyoti. Cho’lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. T – 2008. 25-bet
6. N.N. Azizxo’jayeva. “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat”. O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi nashriyoti. T- 2006, 24-b
7. Zulxumor Mirzayeva. Komil Jalilov. Adabiyot o’qitish metodikasi (An’anaviylikdan zamonaviylikka) T- 2020, 40-bet
8. W.Henk. “New directions in reading assessment”. Reading and writing quarterly. 1993, 103-120 – bet
9. Q.Yo‘ldoshev, M.Yo‘ldosh. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. T- 2023. 169-bet
10. Dolimov S. Ubaydullayev H, Ahmedov Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi. - T “O‘qituvchi”, 1967. 91-bet

[9] Q.Yo‘ldoshev, M.Yo‘ldosh. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. T- 2023. 169-bet

[10] Dolimov S. Ubaydullayev H, Ahmedov Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi. - T “O‘qituvchi”, 1967. 91-bet